

O‘ZBEK XALQINING QADIMIY TAQVIMIY QARASHLARI VA MAVSUMIY MAROSIMLARI



Oygun Axmedova

Yunus Rajabiy nomidagi O‘zbek milliy
musiqa san’ati instituti
kafedra mudiri,

filologiya fanlari nomzodi, professor

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19381520>

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek xalqining qadimiy taqvimiy qarashlari, mavsumiy marosimlari va ularning folklor hamda madaniy hayotdagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda qadimgi manbalardan biri bo‘lgan Avestada qayd etilgan yil taqvimi va “gohanbor” marosimlari asosida ajdodlarimizning vaqtini hisoblash, tabiat hodisalarini kuzatish va ularga mos ravishda turmush tarzini tashkil etish an‘analari yoritiladi. Shuningdek, xalq taqvimining turli shakllari – shamsiy va qamariy taqvimlar, chilla hisobi, yulduz hisobi, dehqon va chorva hisoblari kabi tizimlar haqida ilmiy qarashlar keltiriladi.

Maqolada bahor fasli bilan bog‘liq xalq sayillari, xususan Navro‘z bayrami arafasida o‘tkaziladigan “Boychechak sayli” marosimining kelib chiqishi, uning ramziy ma‘nosi hamda xalq hayotidagi ahamiyati yoritilgan. Bundan tashqari, qurg‘oqchilik davrida o‘tkaziladigan “Sust xotin” yomg‘ir chaqirish marosimi va u bilan bog‘liq urf-odatlar ham folklor nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: marosim, udum, urf-odat, an‘ana, etnologiya, folklor.

Abstract. This article analyzes the ancient calendrical views of the Uzbek people, their seasonal rituals, and their role in folklore and cultural life. The study examines the traditions of time calculation, observation of natural phenomena, and the organization of everyday life according to them, based on the annual calendar and the “Gahanbar” ceremonies mentioned in the ancient source Avesta. In addition, scientific perspectives on various forms of the traditional folk calendar—such as the solar and lunar calendars, the chilla calculation, the star calculation, as well as agricultural and pastoral time reckoning—are discussed.

The article also highlights folk festivals related to the spring season, particularly the origin, symbolic meaning, and cultural significance of the “Boychechak festival,” which is celebrated before the Navruz holiday. Furthermore, the rain-invoking ritual “Sust Khotin,” performed during periods of drought, and the customs associated with it are analyzed from a folkloristic perspective.

Keywords: ritual, custom, tradition, ethnology, folklore.

Hayot abadiylikning doimiy shartlaridan biri – bu, har bir xalq, umuman, bashariyat aqlu zakovati, tajribasi yangi nasllarda barqaror davom etishi zaruriyati, vorisiylikka nisbatan mangu ehtiyojdir. Qayerda uzilish ro‘y bersa, bo‘shliq yuzaga kelsa, u yerda, albatta, tanazzulga yo‘l ochiladi.

Zotan, odamzodning olam to‘g‘risidagi tasavvurlari, bilimlari hayotiy tajriba va ilm-fan yutuqlari asosida boyib, mukammallashib boradi.

“Avesta”da keltirilishicha, qadimda yil taqvimini bilan bog‘liq marosim – “gohanbor”lar oltita bo‘lgan. Bu bayramlar yilning muayyan vaqtlarida nishonlanganligi qayd etilgan. Masalan, birinchi bayram “*Mayzyuyi zarimaya*”, ya’ni “*bahorning o‘rtasi*” yilning 41–45 kunlari; ikkinchisi, “*Mayzyuyi shima*” – “*yozi o‘rtasi*” yilning 101–105 kunlari; uchinchisi, “*Paytyash haxya*” – “*g‘allani yig‘ib olish*” yilning 176–180 kunlari; to‘rtinchisi, “*Ayatarima*” – “*chorvani uyga qaytarmoq*” yilning 206–210 kunlari; beshinchisi, “*Mayzyayryah*” – “*yil o‘rtasi*” yilning 285–292 kunlari; oltinchisi, “*Hamaspasmasidayah*” – “*butun sipoh harakati*” yoki “*o‘tgan ajdodlarning ruhi uyga qaytadigan kun*” yilning 360–365 kunlariga to‘g‘ri keladi [1.310.]. Demak, “Avesta” jamiyati kishilari aniq yil taqvimiga ega bo‘lganlar va kundalik turmush tarzida, xo‘jalik mashg‘ulotlarini rejalashtirishda unga amal qilganlar hamda yilning belgilangan vaqtlarida bayram va marosimlarni o‘tkazib kelganlar.

Mazkur bayramlar to‘g‘risidagi ma’lumotlar o‘zbek xalqi mavsumiy marosimlarini o‘rganishda asosiy hamda eng qadimiy va katta ilmiy ahamiyatga ega bo‘lgan noyob yozma manbalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, o‘zbek xalqi mavsumiy urf-odat va marosimlarining ilk ko‘rinishlari, tarixiy ildizlari to‘g‘risida xulosalar chiqarishda o‘ziga xos ahamiyatga egadir.

Falakshunos S.Azizov bir maqolasida [2.] “Chilla” tushunchasining asosini xalqimizning “qirq” soni bilan bog‘liq an’anaviy tushunchalari tashkil etishini u qirq kunlik muddat atamasi ekanini, uch xil: diniy, etnografik va taqvimiy talqinlarga egaligini, taqvimiy talqin nuqtai nazaridan yondashiladigan bo‘lsa, chilla yoz va qish fasllarining eng issiq hamda eng sovuq qirq kunlik vaqtini anglatishini, bu muddatlar yoz va qish “chillasi” deb atalishini ta’kidlab, “chilla” tushunchasi va u bilan bog‘liq holda yuzaga kelgan an’anaviy taqvimning mohiyatini chuqurroq anglash uchun o‘zbek folkloridagi raqamlar bilan aloqador xalq maqollarining ma’nosini tahlil qilish maqsadida yil fasllari bilan bog‘liq bir qator maqollar va aytimlarni keltiradi.

Muallif xalq maqol va aytimlaridan kelib chiqib, ajdodlarimiz vaqt hisobi amallarini yaratishda samo yoritgichlari harakatini kuzatish asosida orttirilgan tajribalariga suyanib ish ko‘rganlar, tabiatda kechadigan muayyan mavsumiy-iqlimiy qonuniyatlarga asoslanib, chorvador va dehqon taqvimlarini tuzishga intilganlar, deydi.

Folklorshunos SH.Turdimov S.Azizovning “Chilla taqvimi” maqolasini sharhlar ekan, Markaziy Osiyo, xususan, bizning ajdodlarimiz qadim-qadimdan yashab kelayotgan ikki daryo – Amu va Sir oralig‘ida bu kun fan olamiga ma’lum taqvim va koinot hodisalarini kuzatuvchi joylar, rasadxonalardan: Zomindagi hujjat, Nurota tog‘laridagi quyosh taqvimi bilan bog‘liq qadamjolar, Qo‘y qirilgan qal’a, G‘allaoroldagi sak taqvimi va Toshkentning Ko‘kchasiidagi chillaxona rasadxonalarning mavjudligi ham o‘lkamizda yil hisobini aniqlash, taqvim tuzish an’anasining qadimdan kelayotganligiga guvohlik berishini, arxiastronomiya xalqlarning ana shunday falakiy bilim va tajribalarini mavjud og‘zaki, yozma va ashyoviy manbalar asosida o‘rganishini, hozirgi kunda amal qilayotgan ba’zi taqvimlar bo‘yicha kun, hafta va yil hamisha ham osmon yoritqichlarining holatiga muvofiq kelavermasligini, bu esa o‘z navbatida ma’lum qiyinchiliklar, noaniqliklarni keltirib chiqarisini, xalqimiz orasida avloddan-avlodga o‘tib kelayotgan “chilla” kabi taqvimlar, avvalo, yil hisobiga tabiiy yondashganligi bilan ajralib turishini ta’kidlaydi [3.].

Zotan, milliy taqvimlarimizni yaxlit, tizimli (sistemali) o‘rganish ularning asl mohiyatini, jahon xalqlari taqvimlari bilan uyg‘un va o‘ziga xos jihatlarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Olimlarimiz shu tariqa badiiy haqiqatlar zamiridagi hayotiy haqiqatlarni tobora to‘la-to‘kis namoyon etishga imkon yaratishmoqda. An’anaviy xalq taqvimi bilan bog‘liq bo‘lgan mavsumiy marosim folklorining ma’naviy qadriyatlar silsilasidagi ahamiyati katta. “Hisobdonlarning ma’lumotlariga qaraganda, ilgari ota-bobolarimiz vaqt hisobini yuritishda quyidagi usullardan

foydalanishgan: 1) Yerning quyosh atrofidagi davriy aylanishiga asoslangan **shamsiy taqvim**; 2) Oy fazalarining o'zgarishi va harakatiga asoslangan **qamariy taqvim**; 3) mavsumiy qushlarning ko'klamgi uchib kelishi va kuzda issiq o'lkalarga qishlash uchun uchib ketish muddatlariga asoslangan **“qush qayi”** yoki **“dolg'a hisobi”**; 4) Hulkar yulduzi bilan oyning harakat yo'nalishidagi muayyan kesishuv muddatlariga asoslangan **“to'g'al”** yoki **“to'qush hisobi”**; 5) o'lkamizdagi daryolar sathining ko'tarilishi muddatlarini o'z ichiga olgan **“toshuv hisobi”**; 6) dehqonchilik yilidagi ekinlarni ekish, parvarishlash va o'rib-yig'ib olish muddatlarini anglatuvchi **“dehqon hisobi”**; 7) chorvadorlarning chorva yili davomida bajaradigan udum va amallarini o'zida mujassamlashtirgan **“chorva hisobi”**; 8) yoz va qishning eng issiq hamda eng sovuq qirq kunlik muddatlari bilan bog'liq xalq qarashlari asosida kelib chiqqan **“chilla hisobi”**; 9) O'zbekistonning tabiiy-iqlimiy sharoitida ekinlarning pishib yetilish muddatlarini belgilovchi **“yuz hisobi”**; 10) fasllar almashunuvidagi fenologik kuzatuvlar mahsuli bo'lgan **“to'qson hisobi”**; 11) yulduzlar harakatini kuzatish asnosida kelib chiqqan **“yulduz hisobi”**; 12) **“muchal hisobi”** [4.5.].

Taqvimiy marosimlar folklor badiiy zamirida bezavol va bardavom qadriyatlar sifatida yashab kelar ekan, qachondan boshlangani olis tarix qa'rlarida yashirin bo'lib qolgan bu tadrijning nurli zuhurlarini mifologik naqllarda ham ko'rishimiz mumkin. Ajdodlarimizning mavsumiy urf-odatlarini, butun jahon xalqlarida bo'lgani kabi, olamni bilishga qiziqishdan kelib chiqqanini, shuning natijasida yig'ilgan ilmi va tajribasidan u ham o'z hayotiy ehtiyojlarini amalga oshirish jarayonida foydalanganini aytib o'tishimiz joizdir.

O'zbek xalqida bahorda o'tkaziladigan Navro'z sayli, sumalak sayli, ekin sayli, qizil gul sayli, lola sayli, qizg'aldoq sayli, boychechak sayli, behi gul sayli, chuchmomo sayli, tut sayli kabi ko'plab xalq sayillari mavjud.

Xalqimizning azaliy va qadimiy bayramlari ichida bevosita tabiat va undagi o'zgarishlar, yil fasllari hamda dehqonchilik an'analari bilan bog'liq bo'lgan sayillar muhim ahamiyat kasb etadi. Respublikamizda tabiatning uyg'onishi tog' va qir-adirlarda turli gullarning ochilishi munosabati bilan o'ziga xos feneologik kalendar tarzda turli sayllar o'tkazilganligi ma'lum. Jumladan, Xorazm, Buxoro va Boysunda “Qizil gul – guli surx sayli”, Qo'qon, Isfarava Toshkent atroflarida “Lola sayli” ba'zi tog'li tumanlarda jumladan, Namangan viloyati Chust tumanida, Surxondaryo viloyati Denov tumanlarida “Sumbula sayli” yana boshqa joylarda “Boychechak” kabi bayramlar uyushtirilgan.

Qadim-qadim zamonlardan buyon mamlakatimiz hududida an'anaviy tarzda o'tkazib kelingan gulsayllarining eng qadimiysi va keng tarqalgani “Boychechak sayli” yoki “Boychechak xabari” marosimi hisoblanadi.

“Boychechak sayli”, “Boychechak xabari” marosimi – erta bahorda dalalarda boychechaklar ochilganda bolalar ana shu gullarni terib olib uyma-uy olib yurishlari udumidir.

Boychechak atamasi qadimgi turkiy tildagi “boy” muqaddas, davlat, boylik taqiqlangan, ya'ni ruhlar uchun qurbonlikka atalgan narsa, “chechak”, gul so'zlarining birikuvidan hosil bo'lgan [5.].

“Boychechak sayli” marosimi qadimdan Navro'z bayramidan avval boychechaklar ilk bo'y ko'targan kunlarda o'tkazilgan. Folklorshunos olim M.Jo'rayevning qayd etishicha ba'zi joylarda bolalar bir dasta boychechakni uzun xodaning uchiga bog'lab olganlar va uni ko'tarib qishloq aylanganlar. Boychechak chiqqanligi qish qirovli kunlar ortda qolib, ko'klam yaqinlashganligini anglatadi. Shuning uchun keksa odamlar bolalar olib kelgan boychechakni yuz-ko'zlariga surtib, undan yaqinlashayotgan bahor hidini to'yganlar. Sog'-omon navro'zga yetib

kelganliklariga shukrona qilib: *“Omonlik omonlik hech ko‘rmaylik yomonlik yanagi yil shu kunlarga eson-omon yetaylik! Og‘irligi yerga, yengilligim o‘zimga”* – deb duo qilganlar [4.86.].

Qashqadaryo vohaida ham “Boychechak sayli” o‘ziga xos tarzda o‘tkazilgan. Dasta-dasta boychechak terib olgan bolalar to‘p-to‘p bo‘lishib qishloq aylanishgan. Uy egalari esa bolalar olib kelgan sadafdek oppoq boychechaklarni yuz-ko‘zlariga surtib, tavof qilganlar va *“Omonlik omonlik ilohim hech ko‘rmaylik yomonlik!”* —deb bolalarni alqaganlar. Har bir xonadon sohibi boychechak xabarini keltirgan bolakaylarni birorta tansiq shirinlik bilan siylashga harakat qilgan.

Yana bir mavsumiy marosimlardan biri bu – “Sust xotin” marosimdir.

“Sust xotin” – yil qurg‘oq kelganda o‘tkaziladigan yomg‘ir chaqirish marosimi.

Yomg‘ir chaqirish marosimi odatda bahor faslida o‘tkazilgan. Olimlarning ta’kidlashlaricha, bu marosimlar Suxondaryo va Qashqadaryo viloyatining hududlarida ommaviy tus olgan. Ayrim ma’lumotlarga qaraganda, hatto yomg‘ir chaqirish odatimiz “Avesto”da madh etilgan, sharaflangan, osmon suvlari tangrisi Tishitriyaning xalq o‘rtasidagi boshqacha nomlanishidan iborat ekan.

Dehqonchilik rivojlangan mahalliy joylarda yomg‘irning o‘z vaqtida yog‘ishi juda muhim ahamiyatga egadir. Qurg‘oqchilik dehqonchilik bilan shug‘ullanadigan aholiga katta kulfat keltirgan. Shuning uchun odamlar “Sust xotin” mavsumiy odatini o‘ylab topishgan. Qizig‘i shundaki, bu hududlarda istiqomat qiladigan yurtdoshlarimiz “Sust xotin” marosimi o‘tkazilgandan so‘ng haftalab yomg‘ir yoqqani haqida o‘nlab misollar keltirishadi. Shuning uchun ham xalq bunday marosimlarni o‘tkazishga puxta tayorgarlik ko‘rishgan, har bir amallarga rioya qilishni odat tusiga kiritgan.

Qashqadaryo hududlarida yashovchi mahalliy aholi “Sust xotin” marosimini o‘tkazayotganda dehqonlar omochlarining uchini teppaga qaratib qo‘yib, bir toshbaqani omochning tig‘iga oyog‘idan osib qo‘yishgan. Ayollar bo‘lsa uyma-uy yurib, “Sust xotin” qo‘shig‘ini aytganlar. Uy egasi bug‘doy chiqarib bersa, xotinlar *“Allohu akbar! Guldurmomo, Jaldirmomo kelsin! Yomg‘ir yog‘sin, hammamiz seroblikka chiqaylik!”* deb duo qilishgan.

Yetti uydan yig‘ilgan bug‘doylarni yorg‘uchoqdan chiqarib, ovqat pishiradi. Yetti oila a‘zolari bir to‘planib, bu taomni birgalashib tanavul qilishadi. Shundan keyin “Sust xotin” ni taom pishirilgan uyning tomiga chiqarib tikka qadab qo‘yadilar. Mirishkor qishlog‘ida yomg‘ir yog‘maganda toshbaqani ham osib qo‘yadilar. Shunday qilinsa, yomg‘ir yog‘adi deb o‘ylaydilar.

FOYDALANILGANADABIYOTLAR

1. Авесто. Тарихий адабий ёдгорлик / Асқар Маҳкам таржимаси. – Тошкент, 2001.
2. Азизов С. Чилла тақвими. // Соғ‘лом авлод учун, 2002, 3-сон, 42-47-бет.
3. Турдимов Ш. Изланишлар давом этади. // Соғ‘лом авлод учун, 2002, 3-сон, 46-47-бет.
4. Жўраев М. Ўзбек мавсумий маросим фольклори. Ўқув қўлланма. Т.: Фан, 2008. – Б.5.
5. Мусақулов А. Бойчечак –наврўз гули // Соғ‘лом авлод учун. 2003. 2-сон.
6. Ахмедова О. О‘zbek marosim-udumlarining etnohududiy xususiyatlari. O‘quv qo‘llanma Toshkent. Nodirabegim. 2021.
7. Ахмедова О. Халқ тақвимининг келиб чиқиш тарихида мифологик қарашлар. Перекрёсток культуры журнал, 2019. 1-сон.